

**BRONZA DAVRI MADANIY JARAYONLARIDAN KEYIN
QURILISHDAGI O'ZGARISHLAR: SURXONDARYO MISOLI.**

O'roqov O'tkir Azamat o'g'li

*Termiz davlat universiteti tarix mutaxasisligi 2-kurs magistranti, termiz
arxeologiya muzeyi yetakchi mutaxasisi*

E-mail: utkirurokov873@gmail.com

Anotatsiya: Mazkur maqola "Bronza davri madaniy jarayonlaridan keyin qurilishdagi o'zgarishlar: Surxondaryo misoli" mavzusida qamrab olingan tadqiqotni taqdim etadi. Maqola bronza davri madaniyatlari bilan bog'liq qurilish texnikasi va uslublaridagi o'zgarishlarni Surxondaryo viloyati misolida tahlil qiladi. Tarixiy arxeologik qazishmalar va materiallarni o'rganish asosida, bu davrda qurilish texnologiyalaridagi rivojlanishlarni va o'zgarishlarni aniqlandi. Qolaversa maqola madaniy va iqtisodiy omillar, shuningdek, hududiy xususiyatlarning qurilish jarayonlariga qanday ta'sir ko'rsatganligini yoritadi.

Kalit so'zlar: Tarixiy rivojlanish, qurilish texnologiyalari, o'zgarishlar tahlili, madaniy jarayonlar, qurilish o'zgarishlari

**CHANGES IN BUILDING AFTER BRONZE AGE CULTURAL
PROCESSES: THE EXAMPLE OF SURKHANDARYA.**

Abstract: This article presents a study on "Changes in construction after the Bronze Age cultural processes: Surkhandarya". The article analyzes the changes in construction techniques and styles associated with Bronze Age cultures on the example of Surkhandarya region. On the basis of historical geological excavations and the study of materials, problems and changes in construction technologies in this process were identified. In addition, the article shows how the cultural and economic orientation affects the construction processes of regional production.

Key words: Historical process, construction technology, analysis of changes, cultural processes, construction changes.

ИЗМЕНЕНИЯ В СТРОИТЕЛЬСТВЕ ПОСЛЕ КУЛЬТУРНЫХ ПРОЦЕССОВ БРОНЗОВОГО ВЕКА: НА ПРИМЕРЕ СУРХАНДАРЬИ.

Аннотация: В данной статье представлено исследование на тему «Изменения в строительстве после культурных процессов бронзового века: Сурхандарьинская область». В статье на примере Сурхандарьинской области анализируются изменения в строительных технологиях и стилях, связанные с культурами бронзового века. На основе исторических геологических раскопок и изучения материалов выявлены проблемы и изменения технологий строительства в этом процессе. Кроме того, в статье показано, как культурно-экономическая направленность влияет на процессы построения регионального производства.

Ключевые слова: Исторический процесс, технология строительства, анализ изменений, культурные процессы, строительные изменения

Kirish. Bronza davri (miloddan avvalgi 3300-1200 yillard) insoniyat tarixida madaniy, iqtisodiy va texnologik sohalarda sezilarli o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Bu davrda yuzaga kelgan yangi qurilish texnikalari, me'moriy uslublar va materiallardan foydalanish usullari keyingi tarixiy davrlar uchun muhim asos bo'ldi. Surxondaryo viloyati, uning arxeologik boyliklari va tarixiy yodgorliklari bilan bronza davrining ushbu o'zgarishlar jarayonida alohida o'rin tutadi. Surxondaryoda olib borilgan arxeologik qazishmalar va topilgan materiallar, bronza davridan keyingi qurilish texnologiyalari va me'moriy uslublaridagi o'zgarishlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Ushbu maqola, Surxondaryo misolida bronza davri madaniy jarayonlaridan keyin qurilishdagi o'zgarishlarni tahlil qilish orqali, ushbu o'zgarishlarning madaniy va tarixiy rivojlanishga qanday ta'sir ko'rsatganini o'rganadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Miloddan avvalgi 2200-1300 yillarni o'z ichiga olgan mazkur madaniyat doimiy ravishda

Turkmanistonning janubi Mug'rob va Kapetdog' vohalari, shimoliy Afg'oniston Dashli, Faruxobod, Nechkin va Davlatobod vohalari[1], shimoli-

sharqiy Eron va Tojikistonning janubiy-g'arbiy hududlari bilan o'zaro madaniy aloqada bo'lgan. Vatanimizning janubi hududi sanalgan Surxon diyori, janubiy Turkmaniston, shimoliy Afg'oniston, janubiy Tojikiston va shimoli-sharqiy Eron bronza davri yodgorliklari arxeologik jihatdan ko'pgina tarixchi-arxeolog olimlar: G. A. Pugachenkova V. M. Masson, L. I. Albaum, B. A. Litvinskiy, E. V. Rtveladze, A. A. Askarov, A. S. Sagdullayev, V. I. Sarianidi, T. Sh. Shirinov, Sh. B. Shaydullayev, N. A. Avanesova, K. Abdullayev, M. H. Esonov, A. Sh. Shaydullayev, D. O. Karimova, xorijiy tadqiqotchilardan esa D. Huff, N. Baroffka, M. Teufer, K. Kaniuth, M. Tosi, C. Lamberg-Karlovsky, F. Kohl, P. Amiet and F. Hiebert, S. Salvatori, E. Luneau, J. BendezuSarmiento, L. Stanco, P. Tuslovalar tomonidan o'rganilgan va tatqiqodlar olib borilgan[2]. "Ma'lumki, umumbashariy madaniyatning ajralmas qismi bo'lgan xalq amaliy san'ati dunyodagi har bir xalq hayotida, uning turmush tarzi va qadriyatlari rivojida alohida o'rin tutadi. Insoniyatning ongli hayotida hunarmandchilikning paydo bo'lishi – bu sivilizasiya sari tashlangan eng muhim tarixiy qadam, desak, haqiqatni aytgan bo'lamiz"[3]

Muhokama. Eslab o'tish joizki, davlatimiz hududi bronza asridan boshlab shaharsozlik, me'morchilik, hunarmandchilik taraqqiy etgan yurt hisoblanadi. Qadimgi Baqtriya hududining keng va xilma xil geografik iqlim sharoiti bu qadimiy o'lkada bronza davrida ilk sug'orma dehqonchilik, ilk shaharsozlik madaniyati, ishlab chiqarish xo'jaligi shakllangan va ularning tarixiy rivojlanish yo'llarini oldindan belgilab bergan[4]. Sopollitepa, Jarqo'ton, Bo'ston, Molali va Tillabuloq kabi qadimgi yodgorliklarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, Sopolli madaniyati aholisi xo'jalikning deyarli barcha sohalarini teng rivojlantirgan umumlashgan jamoadir. Ular me'morchilikda simmetriyani, fortifikasiyada labirint tizimini joriy qilgan, xalqaro aloqa va savdo

tizimini yo'lga qo'ygan, hayvon kuchidan foydalanib yerga ishlov berishni amalga oshirgan, din tarixida ibodatxonalar qurish darajasigacha rivojlangan, ilk shahar madaniyatiga, "nom" tipidagi davlatchilikka asos solgan[5]. Me'moriy analalari va qurilish uslublari aynan hozirda ham takrorlanib kelishini ko'rmoqdamiz. Xususan, me'morchilikda ko'proq foydalaniladigan ayvon,

ko'cha, magistral ko'cha, supa, ichki xona, zinapoya tushunchalari Sopollitepa yodgorligida yetarlicha ishlatilgan. Qolaversa, ustachilik ishlab chiqarish sexi, kulolchilik ustaxonasi, sopol pishirish pechlari[6]. Hozirgi kunda ham bazi hududlarda foydalaniladigan devorlarni somon suvoq qilish, inshoot pol qismlarini gips va shu kabi materiallar bilan suvash bronza davri aholisida me'morchilik bo'yicha yetarlicha bilim ko'nikmaga ega bo'lganliklaridan dalolat beradi. Shu o'rinda takror ta'kidlash joizki, binolarning pol qismi qurulishiga alohida e'tibor qaratilgan. Ko'p hollarda uyning pol qismi gips, loy suvoq qilingan g'isht to'shamasi, don maxsulotlari saqlash uchun siniq sopol bo'laklari, somon qo''shib suvalgan loydan va hatto yuzasiga kaolin moddasi suvalgan pol yuzasidan iborat bo'lgan[7]. Sopollitepa yodgorligi qurilishida 22x12x42, 20x10x42, 22x12x44, 24x13x46, 20x12x40 sm hajmdagi xom g'ishtlar ishlatilgan[8]. Qurilishda paxsa nisbatan kam ishlatilgan. Xo'jalik turar-joy binolari g'ishtin, paxsali qilib qurilib somon qo'shilib suvoq qilingan. Xonalarda oila ehtiyoji uchun o'choq, sandal, supalar qurulishi xarakterli jihat sanaladi.

Xulosa: Bronza davri madaniy jarayonlaridan keyingi qurilishdagi o'zgarishlar, Surxondaryo misolida, o'zgarishlarning murakkab va ko'p qirrali ekanligini ko'rsatadi. Ushbu davrda, aholi zichligining oshishi, iqtisodiy va ijtimoiy hayotning rivojlanishi, shuningdek, yangi texnologiyalar va qurilish uslublarining joriy etilishi qurilish sohasida sezilarli o'zgarishlarga olib keldi. Surxondaryoda bronza davrining yakunlanishi bilan bir qatorda, yangi madaniyatlar va ta'sirlar paydo bo'ldi, bu esa mahalliy qurilish uslublariga o'zgarishlar kiritdi. Yangi texnik yechimlar, materiallar va arxitektura elementlari joriy etilishi, buning natijasida, o'z davrining ijtimoiy va madaniy talablari va ehtiyojlariga mos ravishda yangi turdag'i binolar va inshootlar paydo bo'ldi. Shunday qilib, Surxondaryodagi qurilish jarayonlaridagi o'zgarishlar, faqatgina texnologik taraqqiyot bilan cheklanmay, balki madaniy va iqtisodiy omillar bilan ham bog'liq bo'lib, ushbu jarayonlar tarixiy rivojlanishni aks ettiruvchi muhim ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- [1] Сарианиди В.И. Древние земледельцы Афганистана. – М.: 1977. С. 22
- [2] Turdiyev Jasur Kaxramanovich Termiz arxeologiya muzeyi ilmiy xodimi, Termiz davlat universiteti arxeologiya yo‘nalishi magistranti
- [3] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг биринчи халқаро ҳунармандчиллик фестивалининг тантанали очилиш маросимидағи нутқи // Халқ сўзи газетаси, № 192 (7422). – Тошкент, 2019
- [4] К.А.Раҳимов. Бақтрияниң бронза даври оташгоҳлари ҳусусида мулоҳазалар // ИМКУ, выпуск 39. Самарканд, 2015. Стр. 69
- [5] 157 Шайдуллаев А.Ш. Сополли маданиятининг глиптикаси ва сферагистикаси. Фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. Самарқанд, 2018.
- [6] А.Аскаров. Сапаллитепа. «Фан». Ташкент, 1973. Стр 13.
- [7] А. Аскаров. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. Ташкент. «Фан». Ташкент, 1977. Стр 33
- [8] А. Аскаров. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. Ташкент. «Фан». Ташкент, 1977. Стр 33